



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALAR NUTQINI O'STIRISHDAGI DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Yoriqulova Gulnigor
Buxoro davlat universiteti, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maktabgacha yosh – bu bolalarning hayotidagi o'yin davri. Bu yoshda bola har bir narsani o'yin orqali bilishga harakat qiladi. Mazkur naqolada o'yinning bola hayotidagi o'rni, MTTlarida didaktik o'yinlar va shu o'yinlar orqali bola nutqini o'stirish kabi masalalar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: o'yin, o'yin turlari, didktik o'yinlar, maktabgacha yoshdagi davr, mashg'ulot, bolalar nutqini o'stirish.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimiga berilayotgan e'tibor yurtimizda kelajak avlod taqdiriga bo'lgan qayg'urish namunasidir. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron –bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi”, deb ta'kidlagan edilar.

Bizga ma'lumki, har qanday ta'lim tizimining asosida didaktika yotadi. «Didaktika» grekcha so'z bo'lib, «o'qitish», «o'rgatuvchi» degan ma'nolarni anglatadi. «Didaktika» so'zining ma'naviy tarjimasini «Ta'lim nazariyasi» demakdir. Ta'lim nazariyasi ta'lim jarayoni tushunchasi va mohiyatini, ta'lim tamoyillarini, ta'lim mazmunini, ta'lim metodlari, shakllari va vositalari mazmunini aks ettiradi. Ta'lim nazariyasining asosiy mohiyati ta'limni tashkil etishdan iboratdir. Ta'limni tashkil etishdan asosiy maqsad yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim vositalaridan biri o'yin faoliyatidir. O'yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi desak mubolaga bo'lmaydi. Chunki o'ynayotgan bolani kuzatib tursa uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurini kattalarga va tengdosh o'rtoqlariga bo'lgan munosabatni bilib olish qiyin emas. Bolalar o'yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xildir: ijodiy o'yinlar va qoidali o'yinlar.

Ijodiy o'yinlarni bolalarning o'zlari o'ylab topgan holda o'ynashadi. Ijodiy o'yinlarning o'yin qoidasini bolalar o'zlari o'yin jarayonida belgilashadi. Qoidali o'yinlar esa yuqoridagi erkinliklardan



cheklangan bòladi. Qoidali òyinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali òyinlar quyidagicha turlarga bòlinadi:

1. Didaktik òyinlar
2. Harakatli òyinlar
3. Musiqaviy òyinlar
4. Ermak òyinlar.

Didaktik o'yinlar bolalarning birgalikda òynab, òz manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishi, bir biriga kòmaklashadi va òrtoğining manfaatidan xursand bòlishi kabi yaxshi munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Katta guruhda didaktik òyinlar quyidagi vazifalarni hal etishni maqsad qilib qòyadi: kuzatuvchanlik, narsalarni tekshira bilish, bir biriga taqqoslay olish, ularning belgilaridagi kichik farqlarni (rangi, shakli, katta-kichikligi, materiallarni seza bilish, narsalarning joylanishidagi òzgarishlarni) aytib bera olishi kabi sensor qobiliyatlarni tarbiyalaydi. Didaktik òyinlar metodi eng samarali metodlar sirasiga kiradi. Didaktik òyinlar orqali olib boriladigan bolalar òquv vazifasini yaxshiroq anglab oladilar, bu ulardagi ixtiyoriy diqqatni oshiradi, faoliyatini faollashtirib, bilishga qiziqishni kuchaytiradi. Tarbiyachi bolalarning sensor rivojlanishini, aqliy tarbiyasini, bilish jarayonlarini didaktik òyinlar orqali amalga oshiriladi.

Har xil so'z o'yinlari nutqning rivojlanishiga yordam beradi. Nutqqa oid didaktik o'yinlar so'z boyligini boyitish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, tovush madaniyatini tarbiyalash, monolog va dialogik nutq ko'nikmalarini rivojlantirish kabi bolalar nutqini rivojlantirishning asosiy muammolarini hal qilishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar tufayli bola mustaqilligi rivojlanadi, boshlangan ishni oxirigacha yetkazish qobiliyati shakllanadi, o'zini tuta bilish, jamoada o'zaro ta'sir o'tkazish, ular o'zaro yordam berish hissi rivojlantiriladi (musobaqa o'yinlari, ular olishlari mumkin bo'lgan stol o'yinlari, o'yinlarda bir nechta bolalarning ishtiroki, masalan, "Rasmni yig'ish", "Lotto", "Domino" va boshqalar). O'yinlarda mag'lubiyat va g'alabani munosib qabul qilish xususiyati ham shakllanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, didaktik o'yin – bolani aqliy jihatdan tarbiyalashning muhim vositasi hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar bolalarda ruhiy bilish jarayonlarini, fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi. Didaktik o'yinlarning muhim jihati bolalarning fikrlash faolligini, mustaqilligini va nutqini rivojlantirishidir. o'yin bola nutqin o'stirishning asosiy va zaruriy vositalaridan biridir. Bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan o'zining kuchi ham yetmaydigan, haddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. To'raqulovich, Jumayev Umedjon, and Hakimova Nargiza Supxonovna. "Ways to shape a healthy lifestyle in the family of preschool children." *Middle European Scientific Bulletin* 11 (2021).
2. To'raqulovich, J. U., Hikmatovna, A. N., & Muhammadovna, R. S. (2021). Theoretical foundations of cooperation between the family and preschool education in the moral and aesthetic development of preschool children. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.
3. To'raqulovich, Jumayev Umedjon, Azimova Nodira Hikmatovna, and Rahmonova Sojida Muhammadovna. "Theoretical foundations of cooperation between the family and preschool education in the moral and aesthetic development of preschool children." *Middle European Scientific Bulletin* 11 (2021).



4. To'raqulovich J. U. Innovative Pedagogical Technologies in a Preschool Educational Institution //International Journal of Culture and Modernity. – 2021. – Т. 11. – С. 215-218.
5. To'raqulovich, J. U., & Muxitdinovna, A. Z. Features of Speech Development in Children of Middle Preschool Age.
6. To'raqulovich J. U., Muxitdinovna A. Z. Features of Speech Development in Children of Middle Preschool Age.
7. Хамроева Н. Н. Комплимент как одна из форм фатического общения КОМПЛЕМЕНТ AS ONE OF FATIC COMMUNICATION FORMS //МІЖНАРОДНИЙ НАУКОВИЙ ЖУРНАЛ «ІНТЕРНАУКА. – 2020. – С. 107.
8. Nizomiddinova K. N. Compliment as one of the forms of Phatic Communication //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 10. – №. 1.
9. Намроева Н. ИЛТИФОТНИНГ ПРАГМАЛИНГВИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
10. Намроева Н. ИЛТИФОТ-ФАТИК МУЛОҚОТНИНГ БИР КЎРИНИШИ СИФАТИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
11. Toirova G., Намроева Н. THE IMPORTANCE OF LINGUISTIC MODELS IN THE DEVELOPMENT OF LANGUAGE BASES //Sciences of Europe. – 2020. – №. 59-2 (59).
12. Хамроева Н. Н., Низомова Ш. Ш. Важные стороны уроков чтения в повышении культуры книгочтения //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1 (46).
13. Хамроева Н. Н., Хотамова И. У., Матниёзова Ш. Б. ХАРАКТЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КОМПЛИМЕНТА КАК ЭТИКЕТНОГО РЕЧЕВОГО ЖАНРА //Academy. – 2020. – №. 12. – С. 81-82.
14. Nizomiddinova K. N. Anthropocentric Approach to Language: Phatics and its Properties //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 107-110.
15. Khamroeva, Nafisa Nizomiddinova. "THE IMPORTANCE OF COMPLIMENT IN THE NORMS OF SPEECH ETHICS." Scientific progress 2.7 (2021): 1213-1217.
16. Низомиддиновна Ҳ. Н. ИЛТИФОТНИНГ ПРАГМАЛИНГВИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ //Сўз санъати халқаро журнали. – 2020. – Т. 5. – №. 3.
17. Намроева Н. Bolalar nutqini ostirishda o'yinlar va sahnalashtirish faoliyatini ahamiyati //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
18. Намроева, Н. (2022). КОНФЛИКТНАЯ РЕЧЬ (КОНФЛИКТНЫЙ ДИСКУРС) И ЕГО СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8).
19. Намроева, Н. (2022). Антропоцентрический подход к языку: фатика и ее особенности. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8).
20. Намроева, Н. (2022). В РАССКАЗЕ ГУЛОМА "Я БУДУ ВОРОМ" ПРИМЕР ЖИВОЙ КОММУНИКАЦИИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8).
21. Намроева, Н. (2022). НОРМЫ РАЗГОВОРНОЙ ЭТИКИ И ДОБРОТЫ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8).
22. Намроева, Н. (2022). Комплимент и его метакоммуникативные функции. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8).



23. Nurulloyev F. Oilada sog'lom, ma'naviy-axloqiy muhit //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.
24. Nurulloyev F. Maktabgacha yoshdagi bolalarda oilaga nisbatan hurmat munosabatini hakllantirish //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
25. Nurulloyev F. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarini axloqiy tarbiyalash //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
26. Нуруллаев Ф. Ф., Бекова М. Ш. Подготовка детей к школе в дошкольном учебном заведении //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 11-2. – С. 74.
27. Temirovna O. L., Chorievna R. L. Methodology to organize independent work of students in mathematics lessons in primary school //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 10. – С. 387-393.
28. Ражабова Л. Ч., Очилова Л. Т. Методика использования мультимедийных образовательных технологий и средств в процессе обучения школьников младших классов //Academy. – 2019. – №. 12 (51).
29. Ражабова Л. Ч., Бахранова А. А. Профилактика конфликтов средствами игровой деятельности у детей старшего дошкольного возраста //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 1-5. – С. 33.
30. Rajabova L. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shart-sharoitlari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
31. Azimov Y. Y., Qo'ldoshev R. A. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari (metodik qollanma). GlobeEdit, 2020.-141bet.
32. Qo'ldoshev R. A. Cognitive activity of left-handed children.«НАЧАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ» III-Международная научнопрактическая конференция. – 2020.
33. Rustambek Q. O. L. Birinchi sinf chapaqay o 'quvchilarining maktabga moslashishi, maktabga moslashishi davridagi pedagogik yordamning mazmuni //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
34. Qo'ldoshev R. ШАРАҚАҲ О 'ҚУВЧИЛАРДА ҲОЗУВ ҚО'НИҚМАЛАРИНИ ШАҚЛАНТИРИШ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
35. Qo'ldoshev R. BIRINCHI SINIF SHARAQAY O 'QUVCHILARNI YOZISHGA O 'RGATISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
36. Qo'ldoshev R. ШАҚАҚАЙ ҲҚУВЧИЛАРНИ ҲЗУВГА ҲРГАТИШНИНГ ИЛМИЙ АМАЛИЙ АСОСЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
37. Qo'ldoshev R. ҲҚУВЧИЛАРНИНГ ШАҚАҚАЙЛИГИНИНГ ФИЗИОЛОГИК, ПСИХОЛОГИК ВА ПЕДАГОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
38. Қўлдошев Р. А. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ШАҚАҚАЙ ҲҚУВЧИЛАРНИ ҲЗУВГА ҲРГАТИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1120-1129.
39. Nabiba G. BIRINCHI SINIF O 'QUVCHILARIDA YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 983-989.



40. Тухсанов К. Р., АРХАИЗМ В. А. ТАРЖИМА//Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал.–2020.

